

*Qayumov Abduvahob f.f.f.d Dotsent,  
A'zamjonova Mohinur Soxibjon qizi*

+998885710012. [azamjonovamokhinur88@gmail.com](mailto:azamjonovamokhinur88@gmail.com)

## BADIIY DETAL VA UNING O‘TKIR HOSHIMOV HIKOYALARIDAGI O‘RNI

**Annotatsiya.** Maqolada detalning badiiy asarlardagi funksiyasi, turlari va O‘tkir Hoshimovning „Urushning so‘nggi qurboni“ hikoyasida qo‘llangan detallar tahlil qilinadi.

**Абстрактный.** В статье анализируются функции и виды деталей в произведениях искусства, а также детали, использованные в рассказе Откира Гашимова «Последняя жертва войны».

**Abstract.** The article analyzes the function and types of details in literary works and the details used in O'tkir Hashimov's story "The Last Victim of War".

**Kalit so‘zlar.** Detal, tafsilot, predmet detal, portret detal, nutqiy detal, obraz, ramziylik, holat, his-tuyg‘u ifodasi.

**Ключевые слова.** Деталь, деталь, деталь предмета, деталь портрета, деталь речи, образ, символика, состояние, выражение эмоции.

**Keywords.** Detail, detail, object detail, portrait detail, speech detail, image, symbolism, state, expression of emotion.

Ijodkor badiiy asarni yaratayotganda uni kitobxonga yetkazib berish, mazmundorligini oshirish uchun va o‘z mahoratini ko‘rsatish maqsadida turli xil unsurlardan foydalanadi. Ulardan biri badiiy detal (fr. detail - tafsilot, mayda-chuyda) - badiiy asarda muayyan mazmun ifodalovchi g‘oyaviy- badiiy yuk tashuvchi tafsilot<sup>1</sup> bo‘lib, hajm jihatidan asarda ko‘p joyini egallamasligiga qaramasdan butun bir asar mazmuniga ta‘sir ko‘rsatadigan va yashirin ma‘no tashiydigan birlikdir. Shu sababli taniqli yozuvchi Chingiz Aytmatov: „Badiiy asarda «mayda-chuyda», «ikir-chikir» degan tushunchalarga o‘rin yo‘q, eng kichik zarra – mikroelement ham asarda insoniy lashar ekan, unga e‘tiborsizlik qilgan yozuvchi insoniylikdan haqqoniy dars berishi, «xalqning o‘qituvchisi», «tuyg‘ular tarbiyachisi» bo‘lishi mumkin bo‘lmasa kerak”<sup>2</sup>-deb bejiz ta‘kidlamagan. Haqiqatan, ham agar shu „mayda-chuyda” lar ham badiiy asarda ma‘lum bir vazifada, obrazda ramziylik ifodalab kelsa, asar ta‘sirchanligi ortadi va ularning ham inson hayotida mazmunga egaligini, ajralmas qismi ekanligini anglaymiz.

Detallarning predmet detal, portret detal, nutqiy va ruhiyat detal kabi turlaridan ko‘p foydalaniladi. Ma‘lum bir predmetni qo‘llash, uning ortidagi ramziy ma‘no orqali o‘quvchi o‘zini asar voqealari bo‘lib o‘tgan muhitda his qiladi, asarda qo‘llanilgan predmet ham o‘zida ma‘noviy yuk tashiydi. „Kitobxon e‘tibor bermay o‘tishiyam mumkin bo‘lgan bunday detallar yo‘l-yo‘lakay, shunchaki, eslab qo‘yiladi (ammo izziz ketmaydi) yoki bayon qilinayotgan voqelikka singdirib yuboriladi.”<sup>3</sup> Masalan, Shodiqul Karimovning „Hovlidagi daraxt” hikoyasini olsak, daraxt detali o‘zbek madaniyatida azaldan oila shajarasini ifodalash maqsadida foydalaniladi, insonlar ham daraxt kabi bir ildizdan oila sifatida shakllanadi. Hikoyadagi „daraxt otamga bobomeros yodgorlik hisoblanar, shu sababli uni nihoyatda avaylardi. Va bizdan ham shuni talab qilardi,” jumalari orqali daraxtning ildizi hikoya qiluvchining bobosi ekanligini, mevalari esa qahramon, uning aka-singillari sifatida tasvirlanayotganini anglash qiyin emas. Portret detallarda esa qahramonning tashqi ko‘rinishi, kiyim-kechaklari, shuningdek psixologiyasi, ya‘ni „yozuvchi asosiy e tiborni personaj yoki lirik qahramonning

<sup>1</sup> Boboyev To‘xta. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent. "O‘zbekiston" -2022 b.88

<sup>2</sup> <https://fayllar.org/>

<sup>3</sup> Солижонов Й. Деталлар тилга кирганда. Ўзбек адабий танкиди: [антология] /тузувчи ва нашрга тайёрловчи Б.Каримов; тахрири хайъати У.Норматов [ва бошқ] – Т.: “TURON-IQBOL”, 2011

ichki dunyosi, uning his-tuyg'ulari, fikrlari, kechinmalari, xohish-istaklariga qaratadi.”<sup>4</sup> Abdulla Qodiriyning „O'tkan kunlar” romanida Kumushning „oq sochlari”, „chizilgan yuzlari” bilan qayg'uli va keksa ko'rinishga ega portret detali orqali kumushning juda ko'p qiyinchiliklar oqibatida shu ahvolga tushganidan ishora desak yanglishmagan bo'lamiz. Romanda Otabekning ko'p hollarda sukut saqlashi, yumshoq ohangda gapirishi uning chuqur o'ylab, mulohaza qilib gapiradigan insonligi va his-tuyg'ular bilan o'zini ifodalashidan dalolat beradi. Yozuvchi qahramonning ayni paytdagi ahvoli, o'tmishi, kelajak uchun intilishini turli ruhiy holat, his-tuyg'ular ifodasi, ovozdagi va yuz, qo'l, ko'zlardagi ifodani nutqiy detal orqali ochib beradi.

Detallar, asosan hikoya hajmi kichik bo'lganligi sababli, hikoyalarda keng ko'lamdagi ma'noni yetkazib berish uchun qo'llaniladi. O'zbek adabiyotida O'tkir Hoshimov, Abdulla Qahhor, Shukur Xolmirzayev badiiy ijodida detallarning turli xillaridan mohirona qo'llashi bilan ajralib turadi. Jumladan, O'tkir Hoshimov „Urushning so'nggi qurboni” hikoyasida turli detallarga murojat qiladi: asarda nomi hamma uchun birday yoqimsiz bo'lgan ikkinchi jahon urushining keltirib chiqargan talofatlari, qiyinchiliklari, qayg'ulari oddiy bir oila, Umri xola oilasi misolida namoyon bo'ladi. Hikoya Shoikrom xonadoni tasviri bilan boshlanadi va undagi „musulmon” g'isht detali asar kontekstiga va voqealariga e'tibor berish orqali fikrlasak, bu oila ham qachonlardir o'ziga to'q bo'lganini, uy qurishda unchamuncha arzon turmaydigan g'ishtdan foydlanganini, lekin urush sabab qornini arang to'ydirayotkanini, Umri xolaning ushoqlarni ham terib og'ziga solishi, Xadichaning bir kosa ovqatni Umri xolaga olib chiqmay ertagalik uchun olib qo'yish holatlaridan ham sezish mumkin.

„Ammo beparvolik bilan qo'l siltadi-yu do'ppisini sandal ustiga tashlab yonboshladi. O'zim itday charchaganman. Bir hovlida turib o'n kundan buyon hol so'ramaganiga afsuslanib xo'rsiniq keldi. Umri xola qult etib yutundi”<sup>5</sup>.

Quyidagi jumalarda ishlatilgan „qo'l siltamoq”, „itday charchaganman”, „xo'rsiniq keldi”, „qult etib yutundi” kabi iboralar urush keltirgan azoblar insonlarni naqadar qiynagani, charchatgani, kayfiyatini tushirganini ko'rsatib beryapti. Asardagi „shinni dog'i qotgan quroq dasturxon”, „ter hidi anqib turgan lo'labolish”, „bandi kuygan qoshiq”, „uniqqan chit ko'ylak” ham turmush tarzining qiyinligiga ishora beradi, sababi hatto Islom dinimiz buyurgan fazilatlaridan biri pokizalikka ham amal qilmay, bandi kuygan qoshiq o'rniga boshqasini sotib olmasdan hayot kechirayotganidan xalqning bundanda muhim dardi borligini his qilishimiz mumkin.

O'zbek madaniyati va mentalitetida ona qadr-qimmatga, mehrga loyiq ulug' zot sifatida e'tirof etiladi, ona uchun she'rlar, dostonlar yaratiladi va e'zozlanadi. Asarda esa Shoikrom onasining barmoqlari tars-tars yorilib ketganini endi payqadi. Ilgari ham shunaqamidi, yo'qmidi, eslay olmadi. Shoikrom uning qulupnay qizili yuqqan, yorilib ketgan barmoqlarini, bo'rtgan tomirlarini aniq ko'rdi<sup>6</sup> jumalaridagi „tars-tars yorilgan barmoq”, „yorilgan barmoq” kabi portret detallari orqali qariganda farzandlari rohatini ko'rib zavqlanayotgan onaning timsolini emas, balki sovuq urush ayamagan, ona va farzand diydorlashuviga ham fursat bermagan, insonlar hatto yaqinlariga ham e'tibor qilishga, mehr ko'rsatishga vaqt yetmagan, hammani o'zi bilan o'zini ovvora qilib qo'ygan mudhish bir voqeani ko'z oldingizda gavdalantiradi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarda qo'llaniladigan yordamchi vosita hisoblangan detal asarning mohiyatini ochib berishda, uni konkretlashtirishda katta ro'l o'ynaydi. O'zbek badiiy adabiyoti ijodkorlari o'zlarining ifoda yo'sinlari, detallarni mohirona qo'llash bilan kitobxon ko'nglidan joy olgan. Shu jumladan, O'tkir Hoshimov nafaqat kichik epik janr, balki qissa va romanlarida ham o'zining yozish uslubi, asarlarining kompozitsion qurulishi, hikoyalarni turli detallar orqali boyitganligi bilan kitobxonlar ko'ngliga kira olgan.

<sup>4</sup> А. Н.Николюкин. Литературная энциклопедия терминов и понятий. Интелвак. Москва. 2001 517 б

<sup>5</sup> Hoshimov O'. Hikoyalar.-Toshkent. -G'afur G'ulom, 2002.-B8.

<sup>6</sup> Hoshimov O'. O'sha asar.-B10.